



---

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON KONSEPTINI IFODA  
ETUVCHI BIRLIKLARNING SEMANTIK TAVSIFLARI.**

---

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14559296>

**Nizomova Nargiza Aliyevna**

*Farg'ona davlat universiteti*

*Chet tillar fakulteti*

*Ingliz tili amaliy kursi kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya**

Ushbu keltirilgan maqolada "Makon" konseptini ifoda etuvchi birliklarning ingliz va o'zbek tillaridagi semantik tavsiflari misollar bilan yoritilgan. Ushbu birliklar turli semantik toifalarga bo'linib, har biri makonning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

**Kalit so'zlar**

makon, semantika, joy, hudud, ibora,fazo,hudud,ibora,maskan

Muayyan til leksikasida bo'lgani kabi, uning terminologik tizimida ham o'z va o'zlashgan qatlam farqlanadi. Bu holat terminologik qatlamlar ijtimoiy ongda alohida-alohida tizimlar sifatida mavjud bo'lmas-da, ammo ularning o'zaro variativ, sinonimik, omonimik, qolaversa, paronimik munosabatlarda ekanligi, shu bilan birgalikda, leksik, stilistik va frazeologik terminlarga qo'yiladigan aniqlik talabi, ayniqsa, termin o'zlashtirishning umumiste'mol leksikadan farqli ravishda ko'pincha xarakterga egaligi kabi qator muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Olimlar makonning o'ziga xos universal tabiati haqida turlicha fikr bildirib kelganlar, Ularning fikricha , bir tomondan, odam bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar, makon real mavjud va ob'yektiv xajmlrga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, u sub'yektivdir. Zero, har bir kishi makon, uzoqlik yoki yaqinlik o'lchovi haqida o'z tasavvuriga ega. Ilmiy adabiyotlarda makonning borliqdagi boshqa hodisalar, jumladan, zamon bilan bog'liqdagi boshqa hodisalar jumladan,zamon bilan bog'liqligi asoslangan. Makonni qabul qilishning dualistik xarakteri va uning chegaralarga egaligi ta'kidlangan; makonning geografik, ijtimoiy, psixologik,mental va boshqa turlarining mavjudligi qayd etilgan.<sup>5</sup>Makon moddiy olamning umumiy mavjudlik shakli. Makon ob'yektiv xarakterga ega bo'lib,

---

<sup>5</sup> Попова М.И. Когнитивная основа пространственной модели временных отношений в современном английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск, 1997; Рейхенбах Г. Философия пространства и времени / Пер. с англ. яз. д-ра филос. наук Ю.Б.Молчанова; общ. ред. акад. А.А.Логунова; Послесловие. – М.: Прогресс, 1985. – 343 с.; Симонян Т.А. Семантика пространственных атрибутов в свете когнитивного подхода: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2001.



materiyadan ajralmaydi, uning xarakati bir -biri bilan chambarchas bog'liq miqdoriy va sifatiy cheksizliklarga egadir. Makon olamni tashkil ettiruvchi, materiyaning masofa va hajm bilan belgilanadigan asosiy ob'ektiv yashash shakllaridan biridir. Makon mavjudlikning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida ko'lamlikni va muayyan zamonda predmetlarning bir-biriga nisbatan joylashuvini aks ettiradi. Ushbu kategoriya hamma tillarda ham mavjud. I.V.Skrinnikova to'g'ri ta'kidlaganidek''... turli tillardagi makon munosabatlari bir xilda tasvirlanmaydi, zero, borliqni qabul qilish xarakterini aniqlovchi "madaniy xotira", sosiumlarning yashash sharoitlari hamda boshqa omillar bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi"<sup>6</sup>. Turli tillarda makon konsepti universal xarakterga ega bo'lsada, makon terminiga har-hil tavsif berilganligi kuzatiladi. Bu so'z izohli lug'atlarda, universal, ensiklopedik va texnik fanlar ma'lumotnomalarida qayd etilgan. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'ati" da makon so'ziga quyidagicha tavsif berilgan: 1. Vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks ettiruvchi, materiyaning masofa va hajm bilan belgilanadigan asosiy ob'yektiv yashash shakllaridan biri. 2. Turarjoy, yashash, maskan, vatan. 3. Biror narsa to'plangan yoki ko'p bo'lgan joy. Rus tilida makon tushunchasi ko'lam va uzunlik belgisi bilan xarakterlanuvchi o'rin, oraliq joy, yuza kabilarni anglatuvchi пространство so'zi orqali ifoda etiladi. Ingliz tilida joy, maskan, fazo ma'nolarini anglatuvchi space so'zi bilan ifodalanadi.

Ingliz tilida **makon konsepti** turli xil so'z va iboralar yordamida ifodalanadi. Ushbu birliklar turli semantik toifalarga bo'linib, har biri makonning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Quyida ba'zi asosiy birliklarning semantik tavsiflari keltiriladi.

"Place" so'zi umumiy makonni ifodalaydi. U jismoniy yoki abstrakt joyni anglatishi mumkin. An area, a location, or a particular spot. Bu birlik jismoniy makon bo'lishi yoki odamlar, voqealar, faoliyatlar bilan bog'liq joy bo'lishi mumkin. Masalan: The city center is a crowd place. (shahar markazi jismoniy makon sifatida). He found his place in the world. (metaforik makon sifatida)

"Space" kengroq tushunchani anglatadi va ma'lum bir jismoniy joy yoki soha uchun qo'llaniladi. The boundless three-dimensional extent in which objects and events occur and have relative position and direction. U kenglik, bo'sh joy yoki fazo kabi turli ma'nolarga ega. Masalan: There's not enough space in the kitchen for the table. (fizik makon, hajm) Outer space is vast and largely unexplored. (koinotning kengliklari)

"Location" biror narsa yoki shaxs joylashgan yoki sodir bo'ladigan aniq joyni anglatadi. A specific place or position. Bu birlik joylashuvni aniq belgilash uchun

<sup>6</sup> Философский словарь. – М., 1991. – С.75. 26 41.

qo'llaniladi. Masalan: The school is in a prime location. (qulay va muhim joy)  
What's your current location? (hozirgi joylashuv)

"Site" ko'pincha biror narsa qurilishi yoki ma'lum bir faoliyat uchun ajratilgan joyni ifodalaydi. A specific piece of ground, often associated with construction or a particular purpose. Bu so'z aniq funktsiyaga ega bo'lgan joylar uchun ishlatiladi. Masalan: The construction site was cleared last week (qurilish joyi). The historical site is now a museum (tarixiy joy).

"Region" kengroq hududni ifodalaydi va odatda ma'muriy, geografik yoki iqlimiy chegaralar bilan bog'liq bo'ladi. A large area of land that is different from other areas because of its physical or human characteristics. Bu birlik yirik hududlarni (davlat, viloyat yoki tabiiy landshaftlar) ifodalashda qo'llaniladi. Masalan: The desert region is known for its extreme heat. (iqlimiy hudud) He's from the northern region of the country (geografik hudud).

"Area" keng yoki torroq makonni ifodalaydi va ko'pincha ma'lum bir maqsad uchun ajratilgan joy bo'ladi. A part of a larger space, often used to refer to a geographic division or a section of a place. Bu birlik jismoniy, ma'muriy yoki faoliyat uchun ajratilgan hududlar uchun ishlatiladi. Masalan: The shopping area is very crowded today. (savdo zonasi) This area is known for its beautiful parks. (hudud, joy)

"Territory" davlat yoki xalq tomonidan boshqariladigan yoki egallangan hududni ifodalaydi. An area of land under the jurisdiction of a ruler or state. Bu so'z davlatlar yoki millatlar tomonidan nazorat qilinadigan hududlarni ifodalashda foydalaniladi. Masalan: The country expanded its territory after the war (davlat hududi). The animals fiercely defend their territory (hayvonlar o'z hududini himoya qilishadi).

"Domain" shaxs yoki guruh tomonidan nazorat qilinadigan yoki ta'sir doirasiga kiradigan makonni anglatadi. A specified area, typically of control or influence. Bu so'z ham jismoniy, ham abstrakt makon uchun qo'llanilishi mumkin. Masalan: The king's domain extended across the mountains. (qirolning hududi)

In this domain, she is the expert. (abstrakt nazorat yoki ta'sir sohasini ifodalash)

"Dwelling" inson yashashi uchun mo'ljallangan joyni ifodalaydi. A place of residence, such as a house or apartment. Bu so'z insonning doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyini ko'rsatadi. Masalan: They live in a small dwelling near the sea. (uy yoki yashash joyi). The old stone dwelling had been abandoned for many years. (tashlab ketilgan uy)

"Homeland" kishining tug'ilib o'sgan yoki o'zini ma'naviy jihatdan bog'liq deb biladigan yurtni ifodalaydi. The country or region where one was born or feels a deep connection to. Bu so'z vatan va u bilan bog'liq hissiy, madaniy yoki milliy



aloqani aks ettiradi. Masalan: After years abroad, he finally returned to his homeland (vataniga qaytish). She feels a strong connection to her homeland, despite living overseas (vatan bilan bog'liqlik).

"Environment" atrof-muhitni yoki inson yashayotgan sharoitni ifodalaydi.

The surroundings or conditions in which a person, animal, or plant lives or operates. Bu so'z tabiiy yoki inson tomonidan yaratilgan sharoitni ifodalaydi. Masalan: The urban environment can be stressful for some people (shahar atrof-muhiti). The natural environment is important for wildlife preservation (tabiiy atrof-muhit).

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Раҳимов С., Ниёзова Д.А. Нутқий мулоқот бирликларининг функционал-грамматик ва социолингвистик хусусиятлари // тил тизими ва социал мухит. – Самарқанд: САМДЧТИ, 2007.
2. Расулов Р. Умумий тилшунослик. -Т.: Фан ва технология нашриёти, 2007.
3. Нурмонов А., Ҳакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001.
4. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: САМДЧТИ, 2007
5. Boldyrev N.N. (2001). Kognitivnaya semantika (65 s.) Tambov.
6. Djumabayeva J.Sh. (2007). Turli tizimli tillarda leksik va stilistik graduonomiya. Monografiya (126 b.). Toshkent.
5. Sayfullaeva R.R., Mengliyev B.R., Bogieva G.H., Kurbanova M.M., Yunusova Z.K., Abuzalova M.K. Modern Uzbek Literary Language. Textbook - T.: Science and Technology, 2009. - 416 p.